SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MANNONOV G‘AYRAT ABDUVAKIL O‘G‘LI

NOCHIZIQLI HIROTA TENGLAMASINI CHEKSIZ ZONALI DAVRIY FUNKSIYALAR SINFIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

UDK: 517.957

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Mannonov G‘ayrat Abduvakil o‘g‘li
Nochiziqli Hirota tenglamasini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash 3

Маннонов Гайрат Абдувакил угли
Интегрирование нелинейного уравнения Хироты в классе периодических бесконечнозонных функций 21

Mannonov Gayrat Abduvakil ugli
Integration of the nonlinear Hirota equation in the class of periodic infinite – gap functions……...39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……………………………………………………………43

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MANNONOV G‘AYRAT ABDUVAKIL O‘G‘LI

NOCHIZIQLI HIROTA TENGLAMASINI CHEKSIZ ZONALI DAVRIY FUNKSIYALAR SINFIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM866 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xasanov Aknazar Bekdurdiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Taxirov Jozil Ostanovich** fizika-matematika fanlari doktori, frofessor
	Hoitmetov Umid Azadovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___»_________ soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _______________kuni tarqatildi.
(2025 yil «____» ___________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Soleyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.M. Xalxo‘jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

T. Ishankulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahonda olib borilayotgan koʻplab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda Dirak va Shturm-Liuvill operatori uchun qoʻyilgan toʻgʻri va teskari spektral masalalarni tadqiq qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda spektral analizning toʻgʻri va teskari masalalari zamonaviy matematik fizikaning evolyutsion tenglamalari yechimlarini topish va yechimning sinfini aniqlashda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Bundan tashqari bu masalalar radiotexnika, nochiziqli optika, kvant mexanikasi, amorf jismlarning kristallik xossalarini modellashtirishda muhim oʻrin tutmoqda. Davriy koeffitsientli Dirak operatoriga qoʻyilgan teskari spektral masalalari usulidan foydalanib nochizqli Hirota tipidagi tenglamalar uchun qoʻyilgan Koshi masalasini yechish algoritmi nochiziqli muhitlarda ultraqisqa impulslarning tarqalishi, nochiziqli elektrodinamikaning ayrim masalalari oʻrganishda, jumladan yuqorida aytib oʻtilgan sohalarda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Jahonda nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash ilm-fanning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur yoʻnalishda koʻplab nazariy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Hozirgi kunda nochiziqli muhitlarda turli xildagi ultra qisqa yorugʻlik impluslarining tarqalishi, lazer nurlarining tarqalishi, nochiziqli optika kabi sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamani cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash hamda unga qoʻyilgan Koshi masalasini yechish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida nochiziqli Hirota tipidagi tenglama uchun qoʻyilgan Koshi masalasining yechimi tekis yaqinlashuvchi funksional qator koʻrinishida ifodalanishi yuqorida aytib oʻtilgan fizik jarayonlarning muhim xossalarini oʻrganishda, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarining yechimlarini Dirak operatoriga qoʻyilgan toʻgʻri va teskari spektral masalalar usulidan foydalanib aniqlash hamda topilgan yechimlarni amaliyotda qoʻllash boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi[1]” fanlarining ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, xususan zamonaviy matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashda teskari spektral masalalar usulini qoʻllab, davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida Hirota tipidagi

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” qarori

nochiziqli tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimi mavjudligini ko‘rsatish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivoylantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akmademiyaning V.I. Romanoviskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikani rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 1971-yilda E.V. Zakharov, A.B.Shabatlar zamonaviy matematik fizikaning asosiy tenglamalaridan biri bo‘lgan

$$iu_t + 2|u|^2 u + u_{xx} = 0$$

nochiziqli Shredinger tenglamasini kamayuvchi funksiyalar sinfida Dirak operatori sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalanib integrallashga muvaffaq bo‘lishdi.

Xuddi shu usul bilan 1972-yilda M.Wadati tamonidan yana bir nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalardan biri bo‘lgan quyidagi

$$u_t + 6u^2 u_x + u_{xxx} = 0$$

ko‘rinishdagi modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan.

1973-yilda R.Hirota nochiziqli Shredinger va kompleks modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamalari konbinatsiyalaridan tuzilgan quyidagi

$$iu_t + \beta\left(u_{xx} + 2|u|^2 u\right) - i\alpha\left(u_{xxx} + 6|u|^2 u_x\right) = 0,\ \ t > 0,\ \alpha, \beta \in \mathbb{R}$$

ko‘rinishdagi nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamani kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallanuvchanligi ko‘rsatilgan. Ammo davriy koeffitsentli Dirak operatorining uzluksiz spektrdagi lakunalarning barchasi ochiq bo‘lgan (cheksiz zonali potensial) holida Hirota tenglamasini integrallash masalasi ochiq qolgan edi.

1975-yilda A.R. Its, V.B. Matveevlar tamonidan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi chekli zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan. 1976-yilda A.R. Its, V.P. Kotlyarov va 1996 yilda A.O. Smirnovlar nochiziqli Shredinger tenglamasi chekli zonali davriy va kvazidavriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan.

2019-yilda A.B. Hasanov, M.M. Hasanovlar tamonidan quyidagi ko‘rinishdagi

$$u_t = 2i|u|^2 u - iu_{xx} + \gamma(t)|u(0,t)|^2 u_x$$

yuklangan hadli nochiziqli Shredinger tenglamasi davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan.

2021-yilda A.B. Hasanov, U Mo‘minovlar tamonidan

$$iu_t - 2|u|^2 u + u_{xx} = 0$$

ko‘rinishdagi defokuslangan nochiziqli Shredinger tenglamasini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan, hamda bu tenglamaga qo‘yilgan Koshi masalasi yechimga ega bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan.

2021-yilda A.B. Hasanov, T.J. Allanazarovalar tamonidan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan, hamda bu tenglamaga qo‘yilgan Koshi masalasi yechimga ega bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya tugallangan oliy o‘quv yurti yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial operatorlar spektral nazariyasining nochiziqli evolyutsion tenglamalarga tadbiqlari” nomli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Nochiziqli Hirota tipidagi tenglama va nochiziqli yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamalarni cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

-Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida Hirota tipidagi tenglamani integrallanuvchanligini isbotlash;

qo‘shimcha hadli Hirota tipidagi tenglamani Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligini isbotlash;

yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamani Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchanligini isbotlash;

qo‘shimcha va yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimga egaligini olti marta uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida isbotlash.

Tadqiqot obyekti nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglama, qo‘shimcha hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglama, yuklangan hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamasidan iborat.

Tadqiqot predmeti nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamalarni integrallashda davriy koeffitsientli Dirak operatori uchun to‘g‘ri va teskari spektral masalalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida differensial tenglamalar, matematik fizika, differensial operatorning spektral nazariyasi, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va funksional analizni masalalarini yechish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davriy koeffitsientli Dirak operatori uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamani olti marta uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi isbotlangan;

davriy koeffitsientli Dirak operatori lakunalari uzunliklari uchun olingan asimptotik formulalaridan foydalanib nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasini olti marta uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida yechimi mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

davriy koeffitsienli Dirak operatori uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib qo‘shimcha hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamani olti marta uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi isbotlangan;

davriy koeffitsienli Dirak operatori uchun qo‘yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalanib yuklangan hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamani olti marta uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasini yechish algoritmidan foydalanib yuklangan hadli moslangan manbali Korteveg-de Friz tenglamasini va yuklangan hadli nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasining davriy yechimlari aniq ko‘rinishi topilgan.

qo‘shimcha va yuklangan hadli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamalarini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash algoritmidan foydalanib turli muhitlarda tarqalayotgan o‘zgarmas amlatudali to‘lqinlarning tezliklari o‘zgarishlarini aniqlashga tadbiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi davriy koeffitsientli differensial operatorlar uchun teskari spektral masalalarni yechishda va ularni nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechish uchun qo‘llashda matematik fizika, spektral analiz, funksional analiz usullaridan foydalanilgan, shuningdek, matematik mulohazalar qat’iy isbotlar yordamida asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati-zamonaviy matematik fizikaning evolyutsion tenglamalarini davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nochiziqli muhitlarda optika, kvant mexanikasi, elektrodinamika, gidrodinamika, zamonaviy matematik fizikada qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nochiziqli Hirota tenglamasini integrallash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nochiziqli Hirota tipidagi qo‘shimcha hadli Hirota tipidagi va yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamalarni cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash algoritmidan, OT-F4-04 (05) “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechishga tadbiqlari, Yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” mavzusidagi fundamrntal loyihada foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2024-yil 22-noyabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yuklangan hadli moslangan manbali Korteveg-de Friz tenglamasi va yuklangan hadli nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasining davriy yechimlarining aniq ko‘rinishlarini teskari spektral masalalar usuli orqali aniqlash imkonini bergan.

cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida teskari spektral masalalar usulidan foydalanib Hirota tenglamasini, qo‘shimcha va yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamalarini integrallash algoritmidan, NRF-2020R1A2C1003119 “Global Attractors and Inertial Manifolds of Infinite Dimensional Dynamical Systems” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Janubiy Koreya Respublikasi, Chonnam Milliy Universitetining 2024-yil 21-noyabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi dinamik chegaraviy shartlarga ega kechikilgan reaksiya diffuziya tenglamalari sinfi uchun attraktorlarning xususiyatlarini o‘rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhlari, masalaning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Davriy Dirak operatori spektral xossalari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida Dirak differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalar to‘g‘risida oldindan ma’lum bo‘lgan qisqacha zaruriy bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan. Bu ma’lumotlardan keyingi boblarda foydalaniladi.

Quyidagi Dirak differensial tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$L(\tau,t)y \equiv \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -1 & 0 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} y_1' \\ y_2' \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} p(x+\tau,t) & q(x+\tau,t) \\ q(x+\tau,t) & -p(x+\tau,t) \end{pmatrix}\begin{pmatrix} y_1 \\ y_2 \end{pmatrix} = \lambda \begin{pmatrix} y_1 \\ y_2 \end{pmatrix},\ x,\tau \in \mathbb{R},\ t>0\ .(1)$$

Bu yerda λ- kompleks parametr bo‘lib, $p(x+\pi,t) = p(x,t) \in C^2(\mathbb{R})$, $q(x+\pi,t) = q(x,t) \in C^2(\mathbb{R})$ haqiqiy funksiya.

(1) differensial tenglamaning ushbu $c(0,\lambda,\tau,t) = (1,0)^T$ va $s(0,\lambda,\tau,t) = (0,1)^T$ boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini mos ravishda $c(x,\lambda,\tau,t) = (c_1(x,\lambda,\tau,t),\, c_2(x,\lambda,\tau,t))^T$ va $s(x,\lambda,\tau,t) = (s_1(x,\lambda,\tau,t),\, s_2(x,\lambda,\tau,t))^T$ vektor-funksiyalar orqali belgilaymiz. Ma’lumki bu vektor-funksiyalar (1) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasidan iborat bo‘ladi va bu funksiyalar uchun quyidagi Vroniskiy ayniyati o‘rinli bo‘ladi:

$$c_1(x,\lambda,\tau,t)s_2(x,\lambda,\tau,t) - c_2(x,\lambda,\tau,t)s_1(x,\lambda,\tau,t) = 1\,.$$

Ta’rif. $\Delta(\lambda,\tau,t) = c_1(\pi,\lambda,\tau,t) + s_2(\pi,\lambda,\tau,t)$ funksiyaga Dirak operatorining Lyapunov funksiyasi yoki Xill diskriminanti deyiladi.

Teorema[2]. Ushbu $\Delta(\lambda,\tau,t) \equiv \Delta(\lambda,t)$ tenglik o‘rinli, ya’ni Lyapunov funksiyasi τ parametrga bog‘liq emas.

Ta’rif. a) (1) tenglamaning $y(0) = y(\pi)$ chegaraviy shartni qanoatlantruvchi yechimini topish masalasiga davriy chegaraviy masala deyiladi.

b) (1) tenglamaning $y(0) = -y(\pi)$ chegaraviy shartni qanoatlantruvchi yechimini topish masalasiga yarimdavriy chegaraviy masala deyiladi.

Teorema[2]. (1) differensial tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalaning xos qiymatlari haqiqiy bo‘lib, ular mos ravishda $\Delta(\lambda,t) - 2 = 0$ va $\Delta(\lambda,t) + 2 = 0$ tenglamalarning ildizlari bilan usma-ust tushadi.

---

[2] А.Б.Яхшимуратов. (2000). Почти–периодичность бесконечнозонных потенциалов оператора Дирака. Кандидатская диссертация, Ургенческий Государственный Университет.

(1) tenglamaga qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalalarning xos qiymatlarini $\lambda_n = \lambda_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$ kabi belgilaylik. Ma’lumki $\lambda_n = \lambda_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$ lar $\Delta(\lambda,t)\pm 2=0$ tenglamaning ildizlari bo‘ladi, demak $\lambda_n = \lambda_n(\tau,t) = \lambda_n(t),\ n\in\mathbb{Z}$.

Shuningdek, $L(\tau,0)$ Dirak operatorining spektri ushbu

$$\sigma\left(L(\tau,0)\right) = \left\{\lambda\in\mathbb{R} : |\Delta(\lambda)|\le 2\right\} = \mathbb{R}\setminus\left(\bigcup_{n=-\infty}^{+\infty}\left(\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}\right)\right)$$

to‘plamdan iborat bo‘lib, $\left(\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}\right), n\in\mathbb{Z}$ intervallarga lakunalar deyiladi.

Ta’rif. (1) differensial tenglamalar sistemasi ushbu $y_1(0,\tau,t)=0$, $y_1(\pi,\tau,t)=0$ chegaraviy shartlar bilan birga qaralsa, unga Dirixle chegaraviy masalasi deyiladi.

(1) differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Dirixle chegaraviy masalasining xos qiymatlarini $\xi_n = \xi_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$ orqali belgilaymiz. Ma’lumki $\xi_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$ Dirixle chegaraviy masalasining xos qiymatlari $s_1(\pi,\xi_n(\tau,t),\tau,t)=0$ tenglamaning ildizlari bilan usma-ust tushadi va $\xi_n(\tau,t)\in\left[\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}\right], n\in\mathbb{Z}$ munosabat o‘rinli bo‘ladi.

Ta’rif. Agar $\left(\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}\right), n\in\mathbb{Z}$ lakunalarning chegaraviy nuqtalari uchun ushbu

$$\ldots<\lambda_{-3}\le\xi_{-1}\le\lambda_{-2}<\lambda_{-1}\le\xi_0\le\lambda_0<\lambda_1\le\xi_1\le\lambda_2<\ldots$$

shartlar bajarilsa, u holda $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorining $p(x+\tau,t), q\left(x+\tau,t\right)$ koeffitsiyenti cheksiz zonali funksiya deyiladi.

Ta’rif. $\left\{\xi_n\left(\tau,t\right),\sigma_n\left(\tau,t\right)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}\right\}$ to‘plamga $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorning spektral parametrlari deyiladi. Bu yerda $\sigma_n\left(\tau,t\right)=sgn\left\{s_2\left(\pi,\xi_n,\tau,t\right)-\right.$ $\left.-c_1\left(\pi,\xi_n,\tau,t\right)\right\},\ n\in\mathbb{Z}$ ishoralar ketma-ketligi.

Ta’rif. Ushbu $\left\{\lambda_n\left(\tau,t\right),\xi_n\left(\tau,t\right),\sigma_n\left(\tau,t\right)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}\right\}$ to‘plamga $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorning spektral berilganlari deyiladi. Bu yerda $\lambda_n\left(\tau,t\right), n\in\mathbb{Z}$ lar (1) Dirak differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalalarning xos qiymatlari.

Ta’rif. $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini topish masalasiga to‘g‘ri spektral masala, $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorining spektral berilganlari orqali uning $p(x+\tau,t), q(x+\tau,t)$ koeffitsiyentlarini topish masalasi esa teskari spektral masala deyiladi.

Teorema[3]. $L\left(\tau,t\right)$ Dirak operatorining $p(x+\tau,t), q(x+\tau,t)$ koeffitsiyenti o‘zining spektral berilganlari orqali bir qiymatli aniqlanadi.

Dissertatsiya ishining **“Hirota tipidagi tenglamani cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash”** deb nomlangan ikkinchi bobida olti marta

---

[3] H.N.Normurodov. (2024). Nochiziqli modifitsirlangan Korteveg-de Friz — sinus-Gordon(mKdF–sG) tenglamalarini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash. PhD dissertatsiya, Samarqand Davlat Universiteti.

uzluksiz differensiallanuvchi cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida Hirota tipidagi tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimga egaligi isbotlangan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida ushbu

$$\begin{cases} p_t = a(t)\left[p_{xxx} - 6p_x\left(p^2+q^2\right)\right] + b(t)\left[-q_{xx} + 2q\left(p^2+q^2\right)\right], \\ q_t = a(t)\left[q_{xxx} - 6q_x\left(p^2+q^2\right)\right] + b(t)\left[p_{xx} - 2p\left(p^2+q^2\right)\right], \end{cases} \tag{2}$$

Hirota tipidagi tenglamaning

$$\begin{cases} p(x,t)\big|_{t=0} = p_0(x), \quad q(x,t)\big|_{t=0} = q_0(x), \\ p_0(x+\pi) = p_0(x) \in C^6(\mathbb{R}), \quad q_0(x+\pi) = q_0(x) \in C^6(\mathbb{R}), \end{cases} \tag{3}$$

boshlang‘ich shartlarni hamda quyidagi

$$\begin{cases} p(x+\pi,t) = p(x,t),\ q(x+\pi,t) = q(x,t),\ x\in\mathbb{R},\ t>0, \\ p(x,t), q(x,t) \in C_x^3(t>0)\cap C_t^1(t>0)\cap C(t\ge 0). \end{cases} \tag{4}$$

silliqlik shartlarini qanoatlantiruvchi $\left(p(x,t), q(x,t)\right)$ yechimini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida topish masalasi qaralgan. Bu yerda $a(t), b(t) \in C\left[0;\infty\right)$ berilgan va chegaralangan funksiya.

(3) boshlang‘ich shartda berilgan $p_0(x+\tau)$, $q_0(x+\tau)$ funksiyalar yordamida $L(\tau,0)$ Dirak operatorini tuzib olamiz. Ma’lumki $L(\tau,0)$ Dirak operatoriga qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalalarning xos qiymatlari $\tau\in\mathbb{R}$ parametrga bog‘liq emas, ya’ni $\lambda_n(\tau) = \lambda_n,\ n\in\mathbb{Z}$. Spektral parametrlari esa $\tau\in\mathbb{R}$ parametrga bog‘liq bo‘lib π davrli funksiyalar bo‘ladi:

$$\xi_n^0(\tau+\pi) = \xi_n^0(\tau),\ \sigma_n^0(\tau+\pi) = \sigma_n^0(\tau),\ n\in\mathbb{Z}.$$

Ushbu paragrafdagi asosiy natijasi quyidagi teoremada bayon etilgan.

1-teorema[4]. Agar $p(x,t), q(x,t),\ x\in\mathbb{R}, t>0,$ funksiyalar (2)-(4) Koshi masalasining yechimi bo‘lsa, u holda, $L(\tau,t)$ Dirak operatoriga qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalalarning xos qiymatlari $\lambda_n(\tau,t), n\in\mathbb{Z}$ lar τ va t parametrlarga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni $\lambda_n(\tau,t) = \lambda_n, n\in\mathbb{Z}$, $\xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1,\ n\in\mathbb{Z}$ spektral parametrlari esa quyidagi birinchi va ikkinchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasi analogini qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial \tau} = 2(-1)^{n-1}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n - \lambda_{2n-1})(\lambda_{2n} - \xi_n)}\, f_n(\xi)(p+\xi_n),\ n\in\mathbb{Z}; \tag{5}$$

$$\frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial t} = 2(-1)^{n}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n - \lambda_{2n-1})(\lambda_{2n} - \xi_n)}\, f_n(\xi)\, g_n(\xi),\ n\in\mathbb{Z}. \tag{6}$$

Bundan tashqari quyidagi boshlang‘ich shartlar ham o‘rinli:

$$\xi_n(\tau,t)\big|_{t=0} = \xi_n^0(\tau),\ \sigma_n(\tau,t)\big|_{t=0} = \sigma_n^0(\tau),\ n\in\mathbb{Z}. \tag{7}$$

---

[4] G‘.A.Mannonov, A.B.Khasanov. Cauchy Problem for the Nonlinear Hirota Equation in the Class of Periodic Infinite-Zone Functions // St. Petersburg Mathematical Journal, 2023, Vol. 34, No. 5, pp. 821—845.(IF=0,4).

(6) tenglamadagi $f_n(\xi)$ va $g_n(\xi),\, n\in\mathbb{Z}$ ketma-ketliklar esa quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$f_n(\xi)=\sqrt{\prod_{\substack{k=-\infty\\ k\neq n}}^{\infty}\frac{(\lambda_{2k-1}-\xi_n)(\lambda_{2k}-\xi_n)}{(\xi_k-\xi_n)^2}},\; g_n(\xi)=a(t)\Big[4\xi_n^3+4p\xi_n^2+2\xi_n(p^2+q^2+$$

$$+q_\tau)+2(pq_\tau-p_\tau q)+2p\left(p^2+q^2\right)-p_{\tau\tau}\Big]+b(t)\Big[(\xi_n+p)^2+q^2+q_\tau+\xi_n^2\Big],\; n\in\mathbb{Z}.$$

Bu yerda

$$p=p(\tau,t),\; q=q(\tau,t),\; \xi_n=\xi_n(\tau,t),\; \xi=\xi(\tau,t)=(\ldots,\xi_{-1}(\tau,t),\xi_0(\tau,t),\xi_1(\tau,t),\ldots).$$

Ma’lumki, $L(\tau,t)$ Dirak operatorining $p(\tau,t)$, $q(\tau,t)$ koeffitsiyentlari uchun quyidagi izlar formulalari o‘rinli[5]:

$$p(\tau,t)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left(\frac{\lambda_{2n}+\lambda_{2n-1}}{2}-\xi_n(\tau,t)\right), \tag{8}$$

$$q(\tau,t)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}(-1)^{n-1}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n(\tau,t)-\lambda_{2n-1})(\lambda_{2n}-\xi_n(\tau,t))}\,f_n(\xi), \tag{9}$$

$$q^2(\tau,t)+q_\tau^2(\tau,t)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left(\frac{\lambda_{2n}^2+\lambda_{2n-1}^2}{2}-\xi_n^2(\tau,t)\right). \tag{10}$$

1-natija. (6) ikkinchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasi analogini (8), (9) va (10) izlar formulalaridan foydalanib yopiq ko‘rinishga keltirish mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida (6)-(7) Koshi masalasi yechimi mavjudligi va yagonaligi ko‘rsatilgan. Buning uchun

$$\xi_n(\tau,t)=\lambda_{2n-1}+(\lambda_{2n}-\lambda_{2n-1})\sin^2 x_n(\tau,t),\; n\in\mathbb{Z} \tag{11}$$

almashtirish olingan. Natijada (6)-(7) Koshi masalasini K Banax fazosida quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{dx(\tau,t)}{dt}=H(x),\quad x(\tau,t)\big|_{t=0}=x^0(\tau)\in K. \tag{12}$$

Bu yerda

$$K=\left\{x=x(\tau,t)=(\ldots,x_{-1}(\tau,t),x_0(\tau,t),x_1(\tau,t),\ldots):\|x\|=\sum_{n=-\infty}^{\infty}\left(1+|n|^2\right)\gamma_n|x_n(\tau,t)|<\infty\right\},$$

$$H(x)=(\ldots,H_{-1}(x),H_0(x),H_1(x),\ldots),\quad H_n(x)=(-1)^n\sigma_n^0(\tau)\cdot\overline{f}_n(x)\cdot\overline{g}_n(x),$$

$$x^0(\tau)=(\ldots,x_{-1}^0(\tau),x_0^0(\tau),x_1^0(\tau),\ldots),\; x_n^0(\tau)=\arcsin\sqrt{\frac{\xi_n^0(\tau)-\lambda_{2n-1}}{\lambda_{2n}-\lambda_{2n-1}}},\; n\in\mathbb{Z},$$

$$\sigma_n^0(\tau)=\frac{1}{2}\sigma_n(\tau,t)\operatorname{sgn}\{\sin 2x_n(\tau,t)\},\; \overline{f}_n(x)=f_n(\ldots,\lambda_{-1}+(\lambda_0-\lambda_{-1})\sin^2 x_0(\tau,t),\ldots),$$

$$\overline{g}_n(x)=g_n(\ldots,\lambda_{-1}+(\lambda_0-\lambda_{-1})\sin^2 x_0(\tau,t),\ldots),\; \gamma_n=\lambda_{2n}-\lambda_{2n-1},\; n\in\mathbb{Z}.$$

[5] А. Б. Хасанов, А. Б. Яхшимуратов, Некоторые тождества для квадратов компонент собственных вектор-функций системы уравнений Дирака с периодическими коэффициентами, Матем. заметки, 2004, том 76, выпуск 3, 459–465.

Ma’lumki[6], $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),\ q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlar o‘rinli bo‘lganda (1) Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalaning xos qiymatlari asimptotikalari uchun quyidagi baholar kelib chiqadi:

$$\gamma_n \equiv \lambda_{2n}-\lambda_{2n-1}=\frac{\left|q_{2n}^6\right|}{2^5|n|^6}+\frac{\delta_n}{|n|^7}, \tag{13}$$

bu yerda

$$\lambda_{2n},\lambda_{2n-1}=n+\sum_{j=1}^{7}c_j n^{-j}\pm 2^{-6}|n|^{-6}\left|q_{2n}^6\right|+|n|^{-7}\varepsilon_n^{\pm},$$

$$q_{2n}^6=\frac{1}{\pi}\int_0^{\pi}Q_0^{(6)}(x)e^{-2inx}dx,\ Q_0(x)=q_0(x)-ip_0(x),\ \sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left(\varepsilon_n^{\pm}\right)^2<\infty,\ \delta_n=\varepsilon_n^{+}-\varepsilon_n^{-}.$$

Xos qiymatlar asimptotikasi, hamda $\xi_n(\tau,t)\in[\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}],n\in\mathbb{Z}$ munosabatdan

$$\inf_{k\neq n}\left|\xi_n(\tau,t)-\xi_k(\tau,t)\right|\geq a>0$$

baho kelib chiqadi. Bu yerda $a>0$ o‘zgarmas n va k ga bog‘liq emas. Bu tengsizlikdan va (13) asimptotikadan foydalanib, ushbu

$$\left|\bar{f}_n(x)\right|,\left|\frac{\partial\bar{f}_n(x)}{\partial x_m}\right| \text{ va } \left|\bar{g}_n(x)\right|,\left|\frac{\partial\bar{g}_n(x)}{\partial x_m}\right|$$

funksiyalarni baholaymiz.

2-lemma. Ushbu

$$C_1\leq\left|\bar{f}_n(x)\right|\leq C_2,\ \left|\frac{\partial\bar{f}_n(x)}{\partial x_m}\right|\leq C_3\gamma_m, \tag{14}$$

$$\left|\bar{g}_n(x)\right|\leq C_4\left(1+|n|^3\right),\ \left|\frac{\partial\bar{g}_n(x)}{\partial x_m}\right|\leq C_5\gamma_m\left(|n|^2+|m|^2+|n||m|+1\right),\ m,n\in\mathbb{Z} \tag{15}$$

tengsizliklar o‘rinli. Bu yerda $C_j>0,\ j=1,2,3,4,5$ sonlar m va n ga bog‘liq emas.

3-lemma. Agar $p_0(x)$, $q_0(x)$ funksiyalar $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda $H(x)$ vektor-funksiya K Banax fazosida Lipshits shartini qanoatlantradi, ya’ni $\exists\, L_1=const>0$ soni topilib $\forall\, x,y\in K$ elementlar uchun

$$\left\|H(x)-H(y)\right\|\leq L_1\|x-y\|$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda

$$L_1=C_6\sum_{\substack{n=-\infty,\\ n\neq 0}}^{\infty}\left(1+|n|^2\right)\left(1+|n|^3\right)\gamma_n<\infty,\ C_6=const>0. \tag{16}$$

2-natija. 1-teorema va 3-lemma (2) - (4) Koshi masalasini cheksiz zonali global yechimini topish algoritmini hosil qiladi. Buning uchun:

---
[6] Мисюра Т.В. Характеристика спектров периодической и антипериодической краевых задач, порождаемых операцией Дирака I // Теория функций, функц. анализ и их прил. 1978. - вып. 30. - С. 90-101.

1. $p_0(x+\tau), q_0(x+\tau)$ koeffitsiyentli $L(\tau,0)$ Dirak operatorining $\lambda_n, \xi_n^0(\tau), \sigma_n^0(\tau)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlarini topib olamiz.

2. Ixtiyoriy τ larda (6)-(7) Koshi masalasini yechib $L(\tau,t)$ Dirak operatorining $\lambda_n,\ \xi_n(\tau,t),\ \sigma_n(\tau,t)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlarini topib olamiz.

3. Topilgan spektral berilganlarni (8), (9) izlar formulalariga qo‘yib (2)-(4) Koshi masalasining $(p(x,t),q(x,t))$ cheksiz zonali global yechimini topamiz.

Shunday qilib biz quyidagi teoremani isbotlashga muvaffaq bo‘ldik.

2-teorema. Agar $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda (2)-(4) Koshi masalasining (8), (9) formulalar orqali aniqlangan yagona $p(x,t)$, $q(x,t),\ x\in\mathbb{R}, t>0$ global yechimi mavjud bo’ladi.

Dissertatsiya ishining **“Yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamani cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash”** deb nomlangan uchinchi bobida qo‘shimcha hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi va yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamalarning cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallanuvchanligi isbotlangan va ushbu tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasi yechimga ega bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida, ushbu

$$\begin{cases} p_t = a(t)\left[p_{xxx}-6p_x\left(p^2+q^2\right)\right]+b(t)\left[-q_{xx}+2q\left(p^2+q^2\right)\right]+c(t)p_x, \\ q_t = a(t)\left[q_{xxx}-6q_x\left(p^2+q^2\right)\right]+b(t)\left[p_{xx}-2p\left(p^2+q^2\right)\right]+c(t)q_x, \end{cases} \tag{17}$$

ko‘rinishdagi qo‘shimcha hadli Hirota tipidagi tenglamaga qo‘yilgan

$$\begin{cases} p(x,t)\big|_{t=0}=p_0(x), \quad p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}), \\ q(x,t)\big|_{t=0}=q_0(x), \quad q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R}), \end{cases} \tag{18}$$

Koshi masalasining haqiqiy cheksiz zonali hamda

$$\begin{cases} p(x+\pi,t)=p(x,t), q(x+\pi,t)=q(x,t), \\ p(x,t), q(x,t)\in C_{x,t}^{3,1}(t>0)\cap C(t\geq 0), \end{cases} \tag{19}$$

silliqlik shartlarini qanoatlantiruvchi yechimini topish algoritmi keltirilgan. Bu yerda $a(t),\ b(t), c(t)\in C[0,\infty),\ c(t)\neq 0$ berilgan chegaralangan funksiyalar.

Mazkur paragrafdagi asosiy natijalaridan biri quyidagi teorema hisoblanadi.

3-teorema. Agar $(p(x,t),\ q(x,t)),\ x\in\mathbb{R}, t>0$ funksiya (17)-(19) Koshi masalasining yechimi bo‘lsa, u holda, $L(\tau,t)$ Dirak operatorining $\lambda_n(\tau,t),\ \xi_n(\tau,t),\ \sigma_n(\tau,t)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlari quyidagi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasining analogini qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial\lambda_n(\tau,t)}{\partial t}=0,\ n\in\mathbb{Z};$$

$$\frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial t} = 2(-1)^n \sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\lambda_{2n}-\xi_n)(\xi_n-\lambda_{2n-1})}\, f_n(\xi) g_{n,1}(\xi),\ n\in\mathbb{Z}. \quad (20)$$

Bundan tashqari quyidagi boshlang‘ich shartlar ham o‘rinli:

$$\xi_n(\tau,t)\big|_{t=0} = \xi_n^0(\tau),\ \sigma_n(\tau,t)\big|_{t=0} = \sigma_n^0(\tau),\ n\in\mathbb{Z}. \quad (21)$$

Bu yerda $\xi_n^0(\tau)$, $\sigma_n^0(\tau)$, $n\in\mathbb{Z}$ - $L(\tau,0)$ Dirak operatorining spektral parametrlari, $p=p(\tau,t)$, $q=q(\tau,t)$, $\xi_n=\xi_n(\tau,t)$, $\xi=\xi(\tau,t)=(\ldots,\xi_{-1}(\tau,t),\xi_0(\tau,t),\xi_1(\tau,t),\ldots)$, $g_{n,1}(\xi)$, $n\in\mathbb{Z}$ ketma-ketlik esa quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi:

$$g_{n,1}(\xi) = a(t)\Big[4\xi_n^3 + 4p\xi_n^2 + 2\xi_n\left(p^2+q^2+q_\tau\right) + 2\left(pq_\tau - p_\tau q\right) +$$

$$+2p\left(p^2+q^2\right) - p_{\tau\tau}\Big] + b(t)\Big[\left(\xi_n+p\right)^2 + q^2 + q_\tau + \xi_n^2\Big] - c(t)\left[\xi_n+p\right]\Big\},\ n\in Z.$$

3-natija. (8) - (10) izlar formulalaridan foydalanib (20) Dubrovin differensial tenglamalar sistemasini yopiq ko‘rinishga keltirish mumkin.

Endi (20) - (21) Koshi masalasining yechimga egaligini ko‘rsatamiz. Buning uchun

$$\xi_n(\tau,t) = \lambda_{2n-1} + \left(\lambda_{2n}-\lambda_{2n-1}\right)\sin^2 x_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$$

almashtirishdan foydalanib, (20)-(21) Koshi masalasini K Banax fazosida quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{cases} \dfrac{dx(\tau,t)}{dt} = \bar{H}(x), \\ x(\tau,t)\big|_{t=0} = x^0(\tau)\in K. \end{cases} \quad (22)$$

Bu yerda

$$K = \left\{ x = x(\tau,t) = (\ldots,x_{-1}(\tau,t),x_0(\tau,t),x_1(\tau,t),\ldots) : \|x\| = \sum_{n=-\infty}^{\infty}\left(1+|n|^2\right)\gamma_n |x_n| < \infty \right\},$$

$$\bar{H}(x) = (\ldots,\bar{H}_{-1}(x),\bar{H}_0(x),\bar{H}_1(x),\ldots),\ \bar{H}_n(x) = (-1)^n \sigma_n^0(\tau)\,\bar{f}_n(x)\,\bar{g}_{n,1}(x),$$

$$x^0(\tau) = (\ldots,x_{-1}^0(\tau),x_0^0(\tau),x_1^0(\tau),\ldots),\ x_n^0(\tau) = \arcsin\sqrt{\frac{\xi_n^0(\tau)-\lambda_{2n-1}}{\lambda_{2n}-\lambda_{2n-1}}},\ n\in\mathbb{Z},$$

$$\sigma_n^0(\tau) = \frac{1}{2}\sigma_n(\tau,t)\operatorname{sgn}\{\sin 2x_n(\tau,t)\},\ \bar{f}_n(x) = f_n(\ldots,\lambda_{-1}+(\lambda_0-\lambda_{-1})\sin^2 x_0(\tau,t),\ldots),$$

$$\bar{g}_{n,1}(x) = g_{n,1}(\ldots,\lambda_{-1}+(\lambda_0-\lambda_{-1})\sin^2 x_0(\tau,t),\ldots),\ \gamma_n = \lambda_{2n}-\lambda_{2n-1},\ n\in\mathbb{Z}.$$

Agar $p_0(x+\pi) = p_0(x)\in C^6(R)$, $q_0(x+\pi) = q_0(x)\in C^6(R)$ bo‘lsa, u holda $L(\tau,t)$ Dirak operatori lakunalari uzunliklari uchun (13) asimptotik formulalar o‘rinli bo‘ladi. Bundan va $\xi_n(\tau,t)\in[\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}], n\in\mathbb{Z}$ ekanligidan

$$\inf_{k\neq n}\left|\xi_n(\tau,t)-\xi_k(\tau,t)\right| \geq a > 0,$$

baho kelib chiqadi. Bu tengsizlikdan va (13) tengliklardan foydalanib, ushbu

$$\left|\bar{f}_n(x)\right|,\ \left|\frac{\partial \bar{f}_n(x)}{\partial x_m}\right|, \left|g_{n,1}(x)\right|,\ \left|\frac{\partial g_{n,1}(x)}{\partial x_m}\right|$$

funksiyalarni baholaymiz.

4-lemma. Ushbu

$$\left|\bar g_{n,1}(x)\right| \le C_7\left(1+|n|^3\right),\ \left|\frac{\partial \bar g_n(x)}{\partial x_m}\right| \le C_8\gamma_m\left(|n|^2+|m|^2+|n||m|+|n|+1\right),\ m,n\in\mathbb{Z},\quad (23)$$

tengsizliklar o‘rinli, $\left|\bar f_n(x)\right|, \left|\frac{\partial \bar f_n(x)}{\partial x_m}\right|$ funksiyalar uchun esa (14) tengsizliklar o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda $C_j>0,\ j=7,8$ sonlar m va n ga bog‘liq emas.

5-lemma. Agar $p_0(x), q_0(x)$ funksiyalar $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda $\bar H(x)$ vektor-funksiya K Banax fazosida Lipshits shartini qanoatlantiradi, ya’ni $\forall x(\tau,t), y(\tau,t)\in K$ elementlar uchun $\exists L_2>0$ mavjud bo‘lib, ushbu

$$\left\|\bar H(x)-\bar H(y)\right\| \le L_2\left\|x(\tau,t)-y(\tau,t)\right\|$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda

$$L_2 = C_9\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left(|n|^2+1\right)\left(|n|^3+1\right)\gamma_n<\infty,\ C_9=const>0\,.$$

4-natija. 3-teorema va 5-lemma (17) - (19) Koshi masalasinining cheksiz zonali global yechimini topish algoritmini hosil qiladi. Buning uchun:

1. $L(\tau,0)$ Dirak operatorining $\lambda_n,\ \xi_n^0(\tau),\ \sigma_n^0(\tau)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlarini topib olamiz.

2. $\lambda_n,\ \xi_n(\tau,t),\ \sigma_n(\tau,t)=\pm1,\ n\in\mathbb{Z}$ orqali $L(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini belgilaymiz. Ixtiyoriy $\tau\in\mathbb{R}$ da (20)-(21) Koshi masalasini yechib, $\xi_n(\tau,t),\ \sigma_n(\tau,t),\ n\in\mathbb{Z}$ spektral parametrlarni topib olamiz.

3. (8), (9) izlar formulasidan foydalanib, $\left(p(\tau,t),\ q(\tau,t)\right)$ funksiyani ya’ni, (17) - (19) Koshi masalasining cheksiz zonali global yechimini topamiz.

4-teorema. Agar (18) boshlang‘ich shartda berilgan $p_0(x),\ q_0(x)$ funksiyalar, ushbu $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda (17) - (19) Koshi masalasining (8), (9) formulalar orqali aniqlangan yagona $\left(p(x,t),\ q(x,t)\right),\ x\in\mathbb{R},\ t\ge0$ cheksiz zonali global yechimi mavjud bo‘ladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida, ushbu

$$\begin{cases} p_t = a(t)\left[p_{xxx}-6p_x\left(p^2+q^2\right)\right]+b(t)\left[-q_{xx}+2q\left(p^2+q^2\right)\right]+ \\ +c(t)\,p\left(x_0,t\right)p_x, \\ q_t = a(t)\left[q_{xxx}-6q_x\left(p^2+q^2\right)\right]+b(t)\left[p_{xx}-2p\left(p^2+q^2\right)\right]+ \\ +c(t)\,p\left(x_0,t\right)q_x, \end{cases}\quad (24)$$

ko‘rinishdagi yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamasining (18), (19) shartlarini qanoatlantiruvchi yechimini topish algoritmi keltirilgan.[7] Bu yerda $a(t), b(t), c(t)\in C[0,+\infty), c(t)\neq 0$ chegaralangan funksiyalar.

5-teorema. Agar $p(x,t), q(x,t), x\in\mathbb{R}, t>0$ funksiya (17)-(19) Koshi masalasining yechimi bo‘lsa, u holda $L(\tau,t)$ Dirak operatorining $\lambda_n(\tau,t), \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t)=\pm 1, n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlari quyidagi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasining analogini qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial\lambda_n(\tau,t)}{\partial t}=0,\ n\in\mathbb{Z};$$

$$\frac{\partial\xi_n(\tau,t)}{\partial t}=2(-1)^n\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\lambda_{2n}-\xi_n)(\xi_n-\lambda_{2n-1})}\,f_n(\xi)g_{n,2}(\xi),\ n\in\mathbb{Z}. \quad (25)$$

Bundan tashqari quyidagi boshlang‘ich shartlar ham o‘rinli:

$$\xi_n(\tau,t)\big|_{t=0}=\xi_n^0(\tau),\ \sigma_n(\tau,t)\big|_{t=0}=\sigma_n^0(\tau),\ n\in\mathbb{Z}. \quad (26)$$

Bu yerda $\xi_n^0(\tau),\ \sigma_n^0(\tau), n\in\mathbb{Z}$ - $L(\tau,0)$ Dirak operatorining spektral parametrlari, $p=p(\tau,t)$, $q=q(\tau,t)$, $\xi_n=\xi_n(\tau,t)$, $\xi=\xi(\tau,t)=(...,\xi_{-1}(\tau,t),\xi_0(\tau,t),\xi_1(\tau,t),...)$, $g_{n,2}(\xi), n\in\mathbb{Z}$ ketma-ketlik esa quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi:

$$g_{n,2}(\xi)=a(t)\Big[4\xi_n^3+4p\xi_n^2+2\xi_n\left(p^2+q^2+q_\tau\right)+2\left(pq_\tau-p_\tau q\right)+$$
$$+2p\left(p^2+q^2\right)-p_{\tau\tau}\Big]+b(t)\Big[\left(\xi_n+p\right)^2+q^2+q_\tau+\xi_n^2\Big]-c(t)p(x_0,t)\left[\xi_n+p\right]\Big\},\ n\in\mathbb{Z}.$$

5-natija. (8) - (10) izlar formulalaridan foydalanib (25) Dubrovin differensial tenglamalar sistemanisini yopiq ko‘rinishga keltirish mumkin.

(25)-(26) Koshi masalasining yechimga egaligi uchinchi bob birinchi paragrafdagidek ko‘rsatilgan. Mazkur paragrafda ham 4-lemma va 5-lemmalar o‘rinli bo‘ladi.

6-natija. 5-teorema va 5-lemma (24), (18), (19) Koshi masalasining cheksiz zonali global yechimini topish algoritmini beradi. Buning uchun:

1. $L(\tau,0)$ Dirak operatorining $\lambda_n,\xi_n^0(\tau),\sigma_n^0(\tau)=\pm 1, n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlarini topib olamiz.

2. $\lambda_n, \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t)=\pm 1, n\in\mathbb{Z}$ orqali $L(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini belgilaymiz va $\tau=x_0$ nuqtada (25)-(26) Koshi masalasini yechib, $\xi_n(x_0,t), \sigma_n(x_0,t)=\pm 1, n\in\mathbb{Z}$ spektral parametrlarni topib olamiz.

3. Topilgan spektral berilganlarni (8) izlar formulasiga qo‘yib $p(x_0,t)$ funksiyani topib olamiz.

4. Topilgan $p(x_0,t)$ funksiyani (25) tenglamag qo‘yib $\forall\tau\in\mathbb{R}$ larda (25)-(26) Koshi masalasini yechib $\xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t)=\pm 1, n\in\mathbb{Z}$ spektral berilganlarni aniqlab olamiz

---

[7] Г.А. Маннонов. Интегрирование уравнения типа Хироты с нагруженными членами в классе периодических бесконечнозонных функций // СамГУ научный вестник, 2024, No.5.

5. Topilgan $L(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini (8), (9) izlar formulalaridan foydalanib, (24), (18), (19) Koshi masalasining $\left(p(\tau,t),q(\tau,t)\right)$, $\tau\in\mathbb{R},\ t\geq 0$ cheksiz zonali global yechimini topamiz.

6-teorema. Agar (18) boshlang‘ich shartda berilgan $p_0(x),q_0(x)$ funksiyalar, ushbu $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda (24), (18), (19) Koshi masalasining (8), (9) formulalar orqali aniqlangan yagona $\left(p(x,t),q(x,t)\right)$, $x\in\mathbb{R},\ t\geq 0$ cheksiz zonali global yechimi mavjud bo‘ladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglamalarni cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallashga bag‘ishlangan bo‘lib, olingan asosiy natijalar quyidagilardan iborat.

Davriy Dirak operatori spektral nazariyasining teskari masalasini yechish usulidan foydalanib:

1. Cheksiz noma’lumli cheksizta birinchi va ikkinchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Koshi masalalarining yechimi mavjudligi va yagonaligi mos ravishda $C^2(\mathbb{R})$ va $C^6(\mathbb{R})$ davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida isbotlangan;

2. Nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi xususiy hosilali differensial tenglamaning integrallanuvchanligi va unga qo‘yilgan Koshi masalasi global yechimining mavjudligi va yagonaligi $C^6(\mathbb{R})$ davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida ko‘rsatilgan;

3. Qo‘shimcha hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi xususiy hosilali differensial tenglamaning integrallanuvchanligi va unga qo‘yilgan Koshi masalasi global yechimining mavjudligi va yagonaligi $C^6(\mathbb{R})$ davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida isbotlangan;.

4. Yuklangan hadli nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi xususiy hosilali differensial tenglamaning integrallanuvchanligi va unga qo‘yilgan Koshi masalasi global yechimining mavjudligi va yagonaligi $C^6(\mathbb{R})$ davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida ko‘rsatilgan;

Olingan natijalar dissertatsiya tadqiqotining maqsadga erishilganligini tasdiqlaydi. Barcha olingan natijalar teskari spektral masalalar usulini qo‘llagan holda, nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash nazariyasiga ma’lum darajada hissa qo‘shadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.02.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

МАННОНОВ ГАЙРАТ АБДУВАКИЛОВИЧ

ИНТЕГРИРОВАНИЕ НЕЛИНЕЙНОГО УРАВНЕНИЯ ХИРОТЫ В КЛАССЕ ПЕРИОДИЧЕСКИХ БЕСКОНЕЧНОЗОННЫХ ФУНКЦИЙ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/FM866.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Хасанов Аканазар Бекдурдиевич** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Тахиров Жозил Останович** доктор физико-математических наук, профессор
	Хоитметов Умид Азадович доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____________2025 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 при Самаркандском государственном университете. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (+99866) 231-06-32, факс: (+99866) 235-19-38, e-mail: patent@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (+99866) 231-06-32, факс: (99866) 235-19-38).

Автореферат диссертации разослан «____» _______________2025 года.
(протокол рассылки №_____ от «____» _______________2025 года).

А.С. Солеев
Председатель научного совета по присуждению научных степеней, доктор физико-математических наук, профессор

А.М. Халхужаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению научных степеней, доктор физико-математических наук, профессор

Т.Ишанкулов
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, доктор физико-математических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость исследовательской работы. Во многих научных и практических исследованиях, проводимых в мире, особое значение уделяется исследованию прямых и обратных спектральных задач для операторов Дирака и Штурма-Лиувилля. В настоящее время в развитых странах большое значение имеют при поиске решений эволюционных уравнений современной математической физики и определении класса решений прямая и обратная задачи спектрального анализа. Кроме того, эти вопросы важны в радиотехнике, нелинейной оптике, квантовой механике, моделировании кристаллических свойств аморфных тел. Алгоритм решения задачи Коши для нелинейных уравнений типа Хироты с использованием метода обратных спектральных задач, наложенных на периодический коэффициент оператора Дирака, важен при исследовании распространения ультракоротких импульсов в нелинейных средах, некоторых задачах нелинейной электродинамики, в том числе в вышеупомянутых полях.

